



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha*
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi
____-*umumiy o'rta ta'lim maktabi*
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
_____ *ning*

20__-20__-o'quv yili 9-sinf
o'zbek tili fanidan III chorak uchun

DARS

ISHLANMALAR

20__-20__-o‘quv yili 9-sinf o‘zbek tili fanidan III chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Vatan himoyachilari.	1		
2.	Hol	1		
3.	Hol. Mashqlar ustida ishlash.	1		
4.	Ravza Yamasheva "Doim hushyor". Mardlik	1		
5.	N. Hasanova "O‘zbekison askari". Mustahkamlash.	1		
6.	Hol turlari	1		
7.	O‘zbekiston milliy sporti dunyoni zabt etmoqda	1		
8.	Milliy sport turining ahamiyati	1		
9.	Sabab holi. Mashqlar ustida ishlash	1		
10.	Mustahkamlash	1		
11.	Nazorat ishi-5	1		
12.	To‘ldiruvchi, uning turlari	1		
13.	Barkamol avlod - kelajak poydevori. Mashqlar ustida ishlash.	1		
14.	Adabiy o‘qish. "Odobli bo‘ling"	1		
15.	Ota -ona oldidagi burchlar	1		
16.	Sharafli burch. Mustahkamlash	1		
17.	Rasm asosida matn yaratish	1		
18.	To‘ldiruvchining ifodalanishi	1		
19.	Muqaddas ayol	1		
20.	Mashqlar ustida ishlash.Ona - ulug‘ zot	1		
21.	Akademik Flora Inoyatova	1		
22.	Muslim Yo‘ldoshev. "Bir dam o‘tir, onajonim"	1		
23.	Milliy an‘analarimiz	1		
24.	Gapning ajratilgan bo‘laklari, ularda tinish belgilarining ishlatilishi	1		
25.	Mehmondorchilik odobi. Gapning ajratilgan bo‘laklarida tinish belgilarining ishlatilish	1		
26.	Adabiy o‘qish va mashqlar ustida ishlash.	1		
27.	Mustahkamlash	1		
28.	Takrorlash	1		
29.	Nazorat ishi-6	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Vatan himoyachilari.

Maqsadlar:

- a) ta'limiy: o'zbek tilida erkin muloqotga kirishishni o'rgatish va bilimlarini yanada oshirish. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakillantirish. Yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida tushuncha berish.
- b) tarbiyaviy: Nutqiy mavzularni izchil va oson o'zlashtirishi, mavzu doirasida unga xos nutqiy qoliplarni aks ettirgan matn, matn yuzasidan topshiriq, dialog, mashqlar va uy vazifasini bajarishni o'rgatish.
- d) rivojlantiruvchi: o'quvchilar nutqini yuqori darajada o'stirish, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:

Berilgan suhbatni to'ldiring va davom ettiring.

- Qishki ta' tilda yaxshi dam oldingizmi?
-
- Ta' tilda qanday bayramni kutib oldingiz?
-
- Yaqin kunlarda biz yana qanday bayramni nishonlaymiz?
-
- Vatanparvarlik - nima?
-

Matnni o'qing va matn yuzasidan berilgan savol vatopshiriqlarni bajaring.



Vatanimiz himoyachilari

Mustaqillikka erishganimizdan soʻng biz oʻz milliy armiyamizga ega boʻldik. 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni sifatida keng nishonlanadi. Vatanimizni koʻz qorachigʻidek asrash har birimizning burchimizdir. Yurtimizning har bir oʻgʻloni Vatan himoyasi uchun xizmat qilishni orzu qiladi. Ular jonajon yurtimizning muqaddas sarhadlarini, xalqimiz osoyishtaligini mardona himoya qiladilar. Shuning uchun har bir bola chiniqqan va mard boʻlishi kerak.

Respublikamizda har yili bahorda yigitlarimiz majburiy harbiy xizmatga chaqiriladilar. Ular bir yil davomida muddatli harbiy xizmatni oʻtaydilar. Majburiy xizmatning toʻrtidan bir qismi oʻtib boʻlgach, yigitlarga shartnoma asosida harbiy xizmatni uzaytirish taklif etiladi.

Biz, yoshlar ham oʻzimizning bilimlarimiz, shijoatimiz va intilishlarimiz bilan Vatanimizga boʻlgan sadoqatimizni koʻrsataylik. Uning ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilaylik.

Lugʻat

himoyachi – защитник
muqaddas – священный
sarhad – граница
shartnoma – контракт

osoyishtalik – спокойствие
chiniqqan – закалённый
harbiy xizmat – военная служба

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Berilgan lugʻatdan foydalanib, matnni ona tilingizga tarjima qiling va mazmunini „Zanjir“ usulida hikoya qiling.
2. Vatanga boʻlgan sadoqat tushunchasini qanday tushunasiz?
3. Lugʻatda berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

IV. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

V. Uyga vazifani eʼlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Hol

Maqsadlar:

- a) ta'limiy: o'zbek tilida erkin muloqotga kirishishni o'rgatish va bilimlarini yanada oshirish. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakillantirish. Yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida tushuncha berish.
- b) tarbiyaviy: Nutqiy mavzularni izchil va oson o'zlashtirishi, mavzu doirasida unga xos nutqiy qoliplarni aks ettirgan matn, matn yuzasidan topshiriq, dialog, mashqlar va uy vazifasini bajarishni o'rgatish.
- d) rivojlantiruvchi: o'quvchilar nutqini yuqori darajada o'stirish, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

Bilib oling!

Kesimga bog'lanib, ish-harakatning qay holda yuzaga kelishi, o'rni va payti, sabab yoki maqsadi, miqdori kabi belgilarni ifodalovchi ikkinchi darajali bo'lak hol deyiladi. **Hol ravish, ravishdosh, sifat, sifatdosh, son, olmosh, chiqish, jo'nalish, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan so'zlar** bilan ifodalanib, qayerga?, qayerda?, qayerdan?, qachonga?, qachondan? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: *U sekin ishladi.*

Gaplarni yozing. Hollarni topib, ifodalanishini tushuntirib bering.

1. Ayriliq, iztirob damlarida inson bitta maqsad bilan yashaydi.
2. Kecha Asqar Dilshod bilan uchrashdi.
3. Tevarakda gala-gala qushlar to'xtovsiz chirqillashardi.
4. O'zbekiston Qurolli Kuchlari muzeyidan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda keng foydalanilmoqda.
5. Shohida akasidan kelgan xatni diqqat bilan o'qib chiqdi.
6. Daraxt bir yerda ko'karadi.
7. Tepalikka chiqishda otlar taqa-taq to'xtab qoldi.

Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozing. Hollarni aniqlang.

1. ... boshlanadi ish.
2. Mashina yangi asfalt yo‘lda ... yurib ketdi.
3. Nodonga ... aysang ham befoyda. (Maqol)
3. Bolalar ko‘chaga chiqib ketishdi. (Oybek)
4. U mukofotlandi.
5. ... yursang, murodingga ... yetarsan. (Maqol)
6. U ... jo ‘nadi.
- 7..... odam ko‘p edi.
8. Barno darsni maqtovga sazovor bo‘ldi.
9. Poyezd bizni ... qoldirib ... yo‘l oldi.

Foydalanish uchun so‘zlar: to‘g‘ri, dalalarda, shoshmasdan, tez, oson, Buxoroga, yaxshi tayyorlagani uchun, yuz, Samarqandda, o‘ynab kelgani, uy ichida, yaxshi o‘qigani uchun.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Hol nima?
2. Hol qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

IV. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifani e‘lon qilish: „Vatanimga xizmat qilaman“ mavzusida matn tuzing

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

**57 listdan iborat o‘zbek tili fanidan
9-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish
uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**